

---

## EHTIYOJMAND FUQAROLARGA AMALIY YORDAM KO'RSATILDI - ULARGA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI YETKAZIB BERILDI



### **Ehtiyojmand fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatildi - ularga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining So'x tumani Xalq qabulxonasida o'tkazilgan navbatdagi tuman hokimi qabulida murojaatlarning bir qismini moddiy yordam masalasi tashkil etdi. Hokim ko'rsatmasiga asosan ushbu murojatlarni ijobiy hal etish maqsadida tuman "Mahalla" xayriya jamoat fondi qoshida tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan murojaat qilgan barcha fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

Tumanning Qizilqiyog, Qaqir, Rovon, Istiqlol, Hushyor, Lenbur mahallasida yashovchi fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari bevosita "Mahalla" xayriya jamoat fondi mutasaddilari ishtirokida manzilli yetkazib berildi. Shunday amaliy ko'mak tumanning sektorlar kesimidagi mahallalarga ham ko'rsatiladi.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-19 20:16:29